



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Ismatullayeva Shirin Suratovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

Umumta'lim fanlar kafedra mudiri

Tel: +998998335553

ismatullaevashirin05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda sug'urta bozori va uni rivojlantirishning dolzarb masalalari haqida fikr yuritilgan bo'lib, O'zbekistonda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish, sug'urta tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari atroflicha o'rganilgan. Shuningdek O'zbekistonda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish masalasidagi qilingan va qilinayotgan ishlar o'rganilgan, xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta bozori, xalqaro sug'urta, sug'urta turi, investitsiya, milliy sug'urta bozori.

KIRISH

Yurtimizda aholi turmush darajasini barqarorlash hamda ularga sifatli xizmatlar ko'rsatilishida sug'urta tarmog'ining o'rni beqiyosdir. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari



bozorining samaradorligini oshirish yurtimizning makroiqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdagi eng muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy davrdagi globallashuv jarayonida sugʻurta bozorining innovatsion rivojlanishi jadal oʻzgarishlar qamrovida kechayotganligi mazkur institut faoliyatini nazariy-amaliy tadqiq etish dolzarb ekanligini anglatadi. Sugʻurta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtda, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sugʻurta faoliyati oʻziga xos tarzda shakllangan va keng qoʻllanilayotgan ijtimoiy hodisa boʻlib, barqarorlik omili sanaladi. Mamlakat sugʻurta bozori rivojini prognozlash oʻz navbatida, biznes subyektlari va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada taʼminlash instituti sifatida sugʻurta faoliyatini rivojlantirish yoʻnalishlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvi, global xavf-xatarlarning oshib borishi, xalqaro sugʻurta hamjamiyati, sohaning ekspertlari va tahlilchilari oldiga hal etilishi dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan qator vazifalarni ilgari surayotganligi xorijlik mutaxassislar tomonidan alohida tilga olinmoqda.

ASOSIY QISM

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi “Sugʻurta bozorini rivojlantirish masalalari muhokamasiga” bagʻishlangan yigʻilishida “Sohaga nazoratchi emas, ilgʻor va zamonaviy standartlarni joriy etadigan, barcha ishtirokchilar oʻrtasida chinakam raqobat muhitini yaratib, sugʻurta bozorini rivojlantiradigan tuzilma kerak”ligi taʼkidlab oʻtilgan[1].

Shundan kelib chiqib “sugʻurta sohasini oʻrta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, 2022 yilgacha aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sugʻurta mukofoti hajmini 3 baravar, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 2 baravar oshirish” sohaning ustuvor vazifasi sifatida belgilab berildi. Ushbu ustuvor vazifalarni



amalga oshirilishini ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining xalqaro va xorij bozorlariga chiqishini ta'minlash hamda ijobiy korporativ boshqaruv tizimini amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni, 2019 yil 17 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5635-sonli, 2019 yil 2 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4412-sonli Qarorlari qabul qilingan[2]. Bundan tashqari "Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 25 noyabrda imzolaniib, 2022 yil 25 fevraldan boshlab kuchga kirdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan sabablarni aniqlash va vaqtida ularni bartaraf etish Prezident Sh.Mirziyoyev o'zlarining iqtisodiy sohaga bag'ishlangan xar bir ma'ruzalarida ta'kidlashlari asnosida mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini yanada rivojlantirish va xalqaro reytinglarni qo'lga kiritish ustuvor ekanligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yil IV chorak yakuni holatiga O'zbekiston sug'urta tashkilotlarining umumiy soni 42 tani tashkil etdi, ularning ustav jamg'armalari so'mdagi miqdori 1545784 mln. so'mni tashkil yetdi. Ustav kapitalining so'mdagi qiymati o'tgan moliya yilining xuddi shu davriga nisbatan 109 foizga o'sgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorida ravishda sug'urta mukofotlar umumiy tushumi yig'indisi o'sib borishi bilan birga, uning YAIMdagi ulushi hamda sug'urta to'lovlarining hajmi ham ortib bormoqda. Mamlakatimizda 2009 yildan boshlab sug'urta bozorida aktual tashkilotlar faoliyati tashkil etildi. Oxirgi yillar davomida aholining



sugʻurtaga boʻlgan munosabatlari tobora yaxshilanib, fuqarolarning sugʻurtalovchilarga boʻlgan ishonchi ortib, sugʻurta ishiga jiddiy yondashilmoqda.

Respublikamizdagi sugʻurta kompaniyalari xodimlari professionalliklari ham sezilarli darajada oshdi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida sugʻurtalovchilarning faoliyati turli xil tashkiliy shakllarda yaʼni, hissadorlik kompaniyalari; davlat va aralash sugʻurta tashkilotlari; xususiy tadbirkorlik va birlashmalar; kooperativ sugʻurta tashkilotlari; qoʻshma korxonalar; avtosugʻurtalovchilar parallel shakllarda namoyon boʻladi. Turli davlatlarda sugʻurta jamiyatlarini tuzishda turli xil tashkiliy-huquqiy shakllardan amaliyotda foydalaniladi. AQSH va Germaniyada hissadorlik jamiyatlari, Fransiyada oʻzaro sugʻurta jamiyatlari, Buyuk Britaniyada esa, sugʻurta assotsiatsiyalari ish olib bormoqda.

Italiya va Ispaniyada kooperativ sugʻurtalash amaliyotda keng qoʻllanilmoqda, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiyada davlat kapitali ishtirokidagi sugʻurta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Ular, asosan, xalqaro sohada maydonga chiqadilar. Bu kompaniyalarga Germaniyaning «Germes», Fransiyaning «Kofase» kompaniyalari misol boʻla oladi.

Bu kompaniyalarning qay tarzda shakllanishi, ularning faoliyati maʼlum meʼyoriy aktlar va maxsus davlat sugʻurta nazorati organlari tomonidan tartibga solinadi.

Mamlakatimiz milliy sugʻurta bozorida faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta kompaniyalari sugʻurta faoliyatining maʼlum tarmogʻiga ixtisoslashish bilan bir vaqtning oʻzida universal faoliyatni ham olib bormoqdalar. Yildan yilga sugʻurta tashkilotlarining faoliyat doiralarini yanada kengaytirish hamda barqaror faoliyat yuritishlari uchun davlat tomonidan ularning ustav kapitallari tegishli meʼyoriy-huquqiy hujjatlar asosida oshirilib borilmoqda. Bu kabi islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad, mamlakatimizda rivojlanayotgan sugʻurta bozorining sugʻurta mahsulotlarini assortimentini koʻpaytirish,



barqarorligi ta'minlash bilan mutanosib ravishda aholida sug'urta mahsulotlariga nisbatan madaniyatni oshirishdan iboratdir. Hozirgi kunda mamlakat sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining aktivlari ham turlicha.

Davlat sug'urta kompaniyalarining ustav kapitallari va jami aktivlari boshqa sug'urta kompaniyalarinikidan sezilarli darajada ko'p, hamda ularning ta'sischilari davlat idoralari va tashkilotlari bo'lganligi uchun ularga bo'lgan sug'urtalanuvchilar ishonchi yuqoridir, ular tomonidan 2022 yilda yig'ib olingan sug'urta mukofotlari jami sug'urta mukofotlarining 42,3foizini tashkil etdi. Sug'urta tizimi sug'urta bozorining professional ishtirokchilari bo'lgan tijorat tashkilotlaridan iborat hisoblanadi.

Sug'urta bozori hayotni sug'urta qilish va umumiy sug'urta qilish tarmoqlarini o'z ichiga qamrab oladi. Sug'urta xizmatlarining umumiy tendensiyalari va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari, sug'urta bozorining rivojlanishi, uning tuzilishi, bizga mamlakatimizda sug'urta xizmatlari samaradorligini baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga sug'urta bozorining rivojlanishi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish, sug'urta munosabatlarini iqtisodiy hamda huquqiy tartibga solish darajasini baholash, sug'urta xizmatlarining umumiy rivojlanishiga ta'siri darajasini baholash muhim hisoblanadi.

Ayni paytda sug'urta bozorida 42 ta sug'urta tashkiloti (shu jumladan: 34 ta umumiy sug'urta, 8 ta hayotni sug'urta qilish tarmog'ida), 5 ta sug'urta va qayta sug'urta brokeri, 22 ta assistans, adjaster va syurveyer, 5 ta aktuariy, 9 mingdan ortiq sug'urta agenti faoliyat ko'rsatib kelmoqda[10].Dunyoda sug'urta bozorining rivojlanganligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich bu sug'urta tushumlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hisoblanadi.

Bizning mamlakatimizda YAIMning 0,4 foizini sug'urta tushumlari tashkil etadi xolos. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofotlari 28 ming so'mni tashkil etmoqda va bu juda past ko'rsatkich hisoblanadi. Sug'urta munosabatlaridagi barcha



tomonlarning huquqlari bir xil emasligi, sugʻurta shartnomalarida sugʻurta toʻlovlari boʻyicha aniq meʼyor va shartlar mavjud emasligini yuridik va jismoniy shaxslarning sugʻurtaga ishonchini oshirishga toʻsqinlik qilmoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Jahon amaliyoti shuni koʻrsatadiki koʻplab mamlakatlarda insonlar sugʻurta kompaniyalariga oʻz ishonchlarini bildirgan holda oʻz hayotlari qolaversa jamiki tegishli boʻlgan buyumlarini ham sugʻurtalab qoʻyishadi.

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar samarasi oʻlaroq, mamlakatimizda ham sugʻurta faoliyatini tubdan takomillashtirish hamda aholini sugʻurta boʻyicha bilimlarini oshirib sugʻurta kompaniyalari bilan aloqalarini yanada kuchaytirish, ularning ishonchlarini oqlash boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda Sugʻurta bozorini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarini uning makro va mikro darajadagi iqtisodiy munosabatlarning oʻzaro bogʻliq kesimlarida koʻrib chiqiladigan boshqaruv jihatlarini takomillashtirmasdan turib amalga oshirib boʻlmaydi. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi. Sugʻurtaga nisbatan tizimli yondashuv, bir tomondan iqtisodiy munosabatlar subyektlarining mol-mulkini himoya qilish manfaatlari, fuqarolar shaxsiy sohasining oʻziga xos xususiyatlari, alohida ijtimoiy tuzilmalarning faoliyatning ehtimoliy qaltisliklaridan shuningdek ijtimoiy maqomning oʻzgarishi munosabati bilan daromadlarni yoʻqotish qaltislik himoya qilish manfaatlari bilan, ikkinchi tomondan esa, tarmoq siyosati va sugʻurtalovchilarning tanlangan strategik yoʻllari bilan belgilanadigan sugʻurta kompaniyalari xoʻjalik yuritishning tashqi va ichki shartlari bilan belgilanadigan qator muhim xususiyatlarini aniqlab berdi.

Sugʻurtalovchi nuqtai nazaridan sugʻurta- bu biznes sohasi, davlat nuqtai nazaridan esa — bu aholini ijtimoiy himoya qilish hamda davlat vazifalarining amalga oshirilishi va



davlat mulkining faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq turli xildagi qaltisliklar yuzaga kelishi ehtimolidan himoya qilish vositasi hisoblanadi.

Bizningcha, sug'urta bozorining istiqbollarini unda xorijiy sug'urta kompaniyalarining ishtiroki bilan bog'lab bo'lmaydi. Nazarimizda, bozorning rivojlanishidagi tub o'zgarishlar sug'urtalovchilar, tarmoq va makrodarajada shakllanadigan boshqaruv vazifalari majmuining hal etilishi bilan bog'liq, ular quyidagilardan iborat:

- sug'urta bozorini rivojlantirishning ekstensiv va intensiv yo'llaridan yalpi tarzda foydalanish;
- aniq ravshan axborot muhitini ta'minlash;
- majburiy sug'urtaning samaradorligini oshirish uchun ushbu sohada davlat siyosatini takomillashtirish;
- sug'urta huquqi tizimini rivojlantirish;
- sug'urta portfeli tarkibini shaxsiy sug'urta foydasiga sezilarli o'zgartirish;
- sug'urta tarmog'i infratuzilmasini yanada rivojlantirish;
- sug'urta qildiruvchilarni himoya qilishning kafolatlarini ta'minlash va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/ru/pdfs/5980203>;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi "Sug'urta bozorini rivojlantirish masalalari"ga bag'ishlangan ma'ruzasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.



4. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. № 6, dekabr 2020 yil. ISSN: 2181-1016 10
5. 2019 yil 17 yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF 5635-sonli Farmoni.
6. 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-sonli Qarori
7. Yadgarov A.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug‘urta tizimi. – Toshkent. Yangi asr avlodi,-2005
8. Shermuhammedov A., Oxunova G., Jo‘rayev O. Xalqaro transport sug‘urtasi.T.:TDIU,2000
9. Shennayev X. Sug‘urta bozori nima?//O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi-Toshkent 1998
10. Jumaniyazov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109116.
11. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(2), 84-88.